XALQ DEPUTATLARI G‘ALLAOROL TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-15-193-3-45-K/25 G‘allaorol tumani

G‘allaorol tumanining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalari, Budjet kodeksining 27 va 99-moddalari, “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-son Qonuniga va xalq deputatlari Jizzax viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-23-350-3-0-K/25-son qaroriga muvofiq hamda Jizzax viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 29-dekabrdagi 02-01-01-169-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari G‘allaorol Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Jizzax viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-23-350-3-0-K/25-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, G‘allaorol tumani mahalliy budjetining 2026-yilgi daromadlari **138 843 501,0 ming.so‘m** va xarajatlari esa **138 843 501,0 ming.so‘m** ma’lumot uchun qabul qilinganligi, shuningdek G‘allaorol tumani mahalliy budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **821 000,0 ming.so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari **1-ilova**ga muvofiq hamda 2026-yilda umumdavlat soliqlaridan tuman mahalliy budjetiga ajratmalar me’yori **2-ilova**ga muvofiq, tuman mahalliy

budjetidan 2026-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari **3-ilova**ga muvofiq, tuman mahalliy budjetining 2026-yil daromadlari va xarajatlarning chegaraviy hajmi **4-ilova**ga muvofiq, shuningdek tuman budjeti yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **5-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun **1 903 201,0 ming.so‘m** miqdorida belgilansin. Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i A.Abdujalilov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘ining hududlarni kompleks iqtisodiy rivojlantirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (M.Turdimuratov), tuman soliq inspeksiyasi (B.Quvondiqov) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

6. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

7. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Ushbu qaror 2026-yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kiradi.

9. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari G‘allaorol tuman Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (O.Mamirov) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i **(**A.Abdujalilov**)** zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **OQBOYEV JALOLITDIN JAMOLOVICH**

Xalq deputatlari G‘allaorol tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-193-3-45-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Jizzax viloyati G‘allaorol tumani mahalliy budjetining daromadlarining 2026 yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Mahalliy reja
JAMI		**138 843 501**
1	Foyda solig‘i	2 562 450
2	Aylanmadan olinadigan soliq	9 507 000
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	26 228 260
4	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	1 841 115
5	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	1 212 120
6	Aksiz solig‘i jami	22 272 750
6,1	*alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)*	
6,2	*pivo*	
6,3	*benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i*	*22 272 750*
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	6 386 522
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	10 890 648
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	15 418 000
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	35 284 896
11	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	1 651 890
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	3 983 000
	shundan: Qishloq bo‘jaligi korxonalari bo‘yicha suv solig‘i	2 800 000
	Qishloq xo‘jaligi korxonalari suv solig‘ining 40 foizini qaytarish (PQ-5)	1 120 000
13	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	0
14	Davlat boji	367 200
15	Yig‘imlar	358 500
16	Jarimalar	773 150
17	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	106 000

Xalq deputatlari G‘allaorol tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-193-3-45-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026 yilda umumdavlat soliqlaridan G‘allaorol tuman mahalliy budjetlariga ajratmalar me’yori

foiz hisobida

№	Soliq turlari	Hududlar nomi	Soliq to‘lovchilar	Ajratma me’yori
1	**Qo‘shilgan qiymat solig‘i**	Tuman budjetiga	YST	0%
			HST	60%
		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	40%
2	**Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i****	Tuman budjetiga	YST	0%
			HST	35%
		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	65%
3	**Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan**	Tuman budjetiga	YST	100%
			HST	100%
		Viloyat budjetiga	YST	0%
			HST	0%
4	**Foyda solig‘i*****	Tuman budjetiga	YST	0%
			HST	55%
		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	45%
5	**Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)**	Tuman budjetiga	YST	0%
			HST	0%
		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	100%
6	**Pivo**	Tuman budjetiga	YST	0%
			HST	0%
		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	100%
7	**Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i**	Tuman budjetiga	YST	0%
			HST	75%
		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	25%
8	**Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq**	Tuman budjetiga	YST	0%
			HST	100%
		Viloyat budjetiga	YST	100%

			HST	0%
9	**Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i**	Tuman budjetiga	YST	0%
			HST	100%
		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	0%
10	**Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq**	Tuman budjetiga	YST	100%
			HST	100%
		Viloyat budjetiga	YST	0%
			HST	0%
11	**Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq**	Tuman budjetiga	YST	100%
			HST	100%
		Viloyat budjetiga	YST	0%
			HST	0%
12	**Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar**	Tuman budjetiga	YST	100%
			HST	100%
		Viloyat budjetiga	YST	0%
			HST	0%
13	**Aylanmadan soliq**	Tuman budjetiga		100%
		Viloyat budjetiga		0%
14	**Davlat boji**	Tuman budjetiga		5%
		Viloyat budjetiga		95%
15	**Jarima**	Tuman budjetiga		5%
		Viloyat budjetiga		95%
16	**Yig‘imlar**	Tuman budjetiga		10%
		Viloyat budjetiga		90%

Izoh: HST - Hududiy soliq to‘lovchilar, YST - Yirik soliq to‘lovchilar

* *Mazkur soliq turlaridan tashqari boshqa daromadlar (3450950, 3450960 va boshqalar) Iqtisodiyot va moliya vazirligi belgilab bergan tartibda shahar (tumanlar) va viloyat budjetlariga ajratma qilinadi.*

** *Jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari.*

*** *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali faoliyatgi amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari*

Xalq deputatlari G‘allaorol tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-193-3-45-K/25 -son qaroriga
3-ilova

2026-yil uchun Jizzax viloyati G‘allaorol tumani budjetidan hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘m

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Summa
	Xarajatlar miqdori, jami	**138 843 501**
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	*43 717 405*
	shundan:	
	"Mening maktabim"	*5 623 800*
2	Madaniyat bo‘limi	*6 615 406*
3	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	*3 304 574*
4	Sport bo‘limi	*11 700 401*
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	*0*
6	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	*4 307 996*
7	Irrigatsiya bo‘limi	*1 661 476*
8	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	*0*
9	Ijtimoiy ximoya milliy agentligining hududiy bo‘limi Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari	*0*
10	Hokimiyat	*40 611 059*
	shundan:	*0*
	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	*2 807 942*
	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	*1 881 491*
	Madaniyat bo‘limi	*147 220*
	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	*579 284*
	Investisiyalar, sanoat va savdo bo‘limi	*441 135*
	Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi	*649 529*
	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	*747 094*
	Oila va xotin-qizlar bo‘limi	*258 409*
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*15 376 157*
	"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*3 252 000*
	Zahira jamg‘armasi	*1 903 201*
11	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	*874 934*
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*0*
	Axborot-kutubxona markazlari	*874 934*
12	Obodonlashtirish boshqarmasi	26 050 250

13	Boshqa tashkilotlar	0

Xalq deputatlari G‘allaorol tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-193-3-45-K/25 -son qaroriga
4-ilova

G‘allaorol tuman mahalliy budjetining 2026-yil daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmi

ming so‘mda

Hudud nomi	**Mahalliy budjetlarning jami daromadlari**	**Shundan,**		**Mahalliy budjet xarajatlari**
		Mahalliy budjet daromadlari	**Tartibga soluvchi transfert miqdori**	
G‘allaorol tumani	138 843 501,0	138 843 501,0	0,0	138 843 501,0

Xalq deputatlari G‘allaorol tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-193-3-45-K/25 -son qaroriga
5-ilova

G‘allaorol tumani mahalliy budjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
1	G‘allaorol tumani	821 000,0